

OYBEKNING "QUTLUG' QON" ROMANIDAGI BAYNALMIMAL SO'ZLAR QO'LLANILISHI

Abdullayev Islom Yunus o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, talaba

Boboqulov Oybek Abdiqodirovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, talaba

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7255568>

Annotatsiya. *Baynalmilalchilik (arabcha "baynalmilal" - millatlararo) - jahondagi turli millat va irqarga mansub kishilarning xalqaro birdamligi; ularning bir-birlarini tushunishlari va o'zaro ishonchining, madaniyatlar, qadriyatlar, bilim va texnologiyalar o'zaro singib borishining asosi; millatchilikning ziddi. Insoniyat tarixi turli millatlar va elatlar orasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'naviy aloqalar o'rnatilib, ularning tobora mustahkamlanib borishi jarayonidir, mazkur munosabatlarsiz esa ijtimoiy taraqqiyot amalga oshmaydi.*

Kalit so'zlar: *Baqqol, mudarris, so'lkavoy – целковий, bordon, barkash, rezgi, zagranitsa, maxorka, okop, chorakor, port, prammafon, allof, faytun, obkash, obrazovanniye, kucher, izvosh.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРНАЦИОНАЛЬНЫХ СЛОВ В РОМАНЕ ОЙБЕКА "КУТЛУГ КОН"

Аннотация. *Интернационализм (араб. «байнаlmilal» — интернациональный) — интернациональная солидарность людей разных национальностей и рас в мире; основе их взаимопонимания и взаимного доверия, взаимопоглощения культур, ценностей, знаний и технологий; противоположность национализму. История человечества есть процесс экономических, политических, культурных и духовных отношений между различными нациями и народами, их укрепления, и без этих отношений не может быть осуществлен общественный прогресс.*

Ключевые слова: *Баккол, мударрис, Солкавой-целковый, бордон, баркаш, резги, заграница, махорка, окоп, чоракор, портвейн, праммафон, аллоф, фййтун, обкаш, образование, кучер, извош.*

USE OF INTERNATIONAL WORDS IN OYBEK'S NOVEL "KUTLUG KON"

Abstract. *Internationalism (Arabic "baynalmilal" - international) - international solidarity of people of different nationalities and races in the world; the basis of their mutual understanding and mutual trust, mutual absorption of cultures, values, knowledge and technologies; the opposite of nationalism. The history of mankind is a process of economic, political, cultural and spiritual relations between different nations and peoples, and their strengthening, and without these relations, social progress cannot be realized.*

Key words: *Baqqol, mudarris, Solkavoy - tselkovy, bordon, barkash, rezgi, zagranitsa, mahorka, okop, chorakor, port, prammafon, allof, faytun, obkash, obrazovanniye, kucher, izvosh.*

KIRISH

XV asr oxiridan boshlangan buyuk geografik kashfiyotlar, sanoat taraqqiyoti, fan va texnika sohasidagi olamshumul ixtirolar davlatlar va xalqlar orasida beqiyos darajada kengaygan iqtisodiy va siyosiy, madaniy, ma'rifiy hamda ma'naviy aloqalarning jadallashuviga olib keldi. Bu baynalmilal aloqalar milliy ong va o'z-o'zini anglash, milliy ozodlik hamda mustaqillik

g'oyalarining shakllanishi va tarqalishiga; ilm-fan va texnika, madaniyat va ma'rifat soxalaridagi yutuqlarning ayirboshlanishiga keng yo'l ochib berdi.

Mustabid sho'rolar tuzumi davrida bir tomonlama talqin qilindi. faqat ishchilar sinfi, uning partiyalari mafkurasi va siyosatining asosiy prinsiplaridan biri, sotsializm va kommunizm uchun kurashdagi birligi, degan ma'noda tushuntirilib, bunda "proletar internatsionalizmi"gina ko'zda tutildi. Aslida esa B. umuminsoniy hodisa bo'lib, barcha xalqlar va mamlakatlarning taraqqiyot sari harakatining , mustaqillik va milliy ozodlik kurashining g'oyat zo'r omilidir.

METOD VA METODOLOGIYA

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'z ichki va tashqi siyosatida B. g'oyalariga sodiq tarzda jahondagi barcha xalqlar va millatlar bilan do'stona aloqalarni o'rnatish hamda rivojlantirish yo'lidan bormoqda. O'zbekiston Respublikasi ilg'or mamlakatlar bilan barcha sohada hamjihatlik, hamkorlik va birdamlikni barqaror etishga institutilmoqda, xalqaro munosabatlarning umum tan olgan qoida va tamoyillariga rioya qilmoqda. Mamlakatda barcha fuqarolarning , ular millati va irqidan qat'i nazar, o'zaro ishonchi hamda birdamligini mustahkamlash, milliy-madaniy ne'matlarini o'zaro ayirboshlash yuzasidan izchil siyosat yuritilmoqda. O'zbekistonda jami 100 dan ziyod - rus, ukrain, belorus, qozoq, qirg'iz, uyg'ur, tatar, qoraqalpoq, tojik, nemis, koreys va boshqa xalqlarning milliy-madaniy markazlari, respublika milliy-madaniy markazi tashkil etilgan, barcha el-elatlarning ma'naviy yuksalishi uchun teng imkoniyatlar yaratilgan.

Endi Oybekning "Qutlug` qon" romani misolida qatnashgan baynalminal so'zlarni ko'rib o'tsak:

T/R	Baynalminal so`zning qaysi tilga oidligi	Asardagi ma'nosi
I	Arabcha baynalminal so`zlar	Ma'nosi
1.	Baqqol	Oziq-ovqat mollari, sabzavot, mayda-chuyda ro`zg`or mollari va meva, shirinliklar sotuvchi mayda savdogar
2.	Mag`rib	Kunbotar(joy va vaqt): g`arb: oqshom
3.	Mashriq	Sharq, kunchiqar
4.	Mudarris	Madrasada dars beruvchi kishi, madrasa o`qituvchisi
5.	Usuli jadid	Jadid-yangi, boyagi, oxirgi. XX asr boshlarida eski maktabdagi tartib va o`qitish usullari o`rniga yangi tartib va ta`lim-tarbiya usuli.
6.	Bazzoz	Gazlama sotuvchi, gazlama bilan savdo qiluvchi do`kondor
7.	Mavlud to`yi	Tug`ilgan, tug`ulish. 1) tug`ulgan kun va shu munosabat bilan beriladigan ziyofat, 2)Muhammadpayg`ambarning tug`ulgan kuni va uning sharafiga beriladigan ziyofat; payg`ambarning shunday ziyofatda o`qiladigan tarjimai holi

8.	Bid'at	Yangilik, yangilik kiritish, dinga qarshi xatti-xarakat
9.	Maziyat	Afzal, ortiq
10.	Mushkulot	Qiyinchiliklar, muammolar, mushkullik
11.	Iona	Yordam, kjo`mak
12.	Juz'iy	Qism, bo`lakka oid; oz, kam
13.	Attor	Atir-upa sotuvchi, upa-elik, turli dorivorlar, xushbo`y narsalar va shu kabilar bilan savdo qiluvchi shaxs
14.	Allof	Xashak, piuchan sotuvchi, un, bug`doy savdosi bilan shug`ullanuvchi savdogar
15.	Mutaassib	O`ta fidoyti, berilgan, g`ayratli; 1)dinga qattiq berilgan, unga ko`r-ko`rona amal qiluvchi; 2) birovga ko`r-ko`rona ergashuvchi, biror g`oyaga ongsiz ravishda qattiq beriluvchi
16.	Buqalamun	Tovlanuvchan, xameleon. 1)Janubiy Osiyoda tarqalgan, daraxtda yasovchi, sudralib yuruvchi, sharoitga qarab rangini o`zgartirib turuvhi kaltakesaksimon jonivor; xameleon, 2) ko`chma ma'noda: o`zgaruvchan
17.	A`lam	Eng bilog`on, eng dono. 1) shariat qonunlari bilimdoni, 2) shariat qonun-qoidalari yuzasidan berilgan fatvoni tasdiq yoki rad etuvchi diniy arbob; bosh mufti
18.	Zakot	Poklik, poklanish, sadaqa.
19.	G`azot	Din uchun urush; din yo`lida qilingan urush, jang;; musulmonlarning muqaddas urushi
II	Forscha baynalminal so`zlar	Ma'nosi
1	Sart	Sarlavha, karvonboshi, savdogar. Qadimgi O`rta Osiyodagi shahar va qishloqlarda yashab, dehqonchilik, savdo va hunarmandchilik bilan shug`ullanib kelgan turkiy xalqlar (jumladan o`zbeklar); Sartiya - sartlar yashaydigan hudud.
2	Yaktak	Bir qavat, astarsiz kiyim; uzun, ko`krak oldi ochiq, erkaklar ko`ylagi
3.	Koranda	Dehqon; ish beruvchi; ishchi; hosilning bir qismini (1/4 dan 1/2 gacha qismini) olishga kelishib ishlovchi dehqon

4.	Chorakor	To`rtidan birga ishlovchi. Boylar yerida, olinadigan hosilning to`rtidan uch qismini yer egasiga berish sharti bilan yollanib ishlagan, o`z yeri yoki o`-uloviga ega bo`lmagan dehqon
5.	Dorpech	Dor yopqichi, o`ramasi; dor osib qo`yilgan kiyim-kechakning ustiga yopiladigan bezakli buyum
6.	Nil	Ko`k bo`yoq modda, indigo; bo`yoq surtadigan surma cho`p
7.	Lungi	Bel va songa o`raluvchi mato parchasi; hammomga kirganda, beldan pastni berkitish uchun bog`lanadigan mato; 2) sartaroshlikda soch-soqol oldiruvchi kishining ko`ksiga tutiladigan sochiq (asarda shu ma`noda)
8.	Obkash	Suv tortuvchi, tashuvchi ; ikki uchidagi ilmog`iga chelak ilib, yelkada suv va boshqa narsalar tashish uchun moslashgan yog`och asbob
9.	Tavan	Jarima, zararni qoplash; xotinlar to`yga olib keladigan meva va kiyimliklardan iborat tortiq; tuhfa
10.	Bordon	Kata hurjun 1)qobig`I olinmagan qamishdan bo`yraga o`xshatib to`qilgan qalin dag`al to`shama 2)shunday to`qimadan tayyorlangan maxsus qop, idish.
11.	Barkash	Jez yoki misdan tayyorlanadigan va patnis o`rnida ishlatiladigan, doira yoki to`rtburchak shaklidagi ro`zg`or asbobi
12.	Rezgi	Maydalanganlik; mayda-chuyda narsalar; qiyindi charm, qiyqim-qiyqim charmlar
13.	Saxtiyon	Oshlangan echki terisi ; echki yoki qo`y terisini o`simlik moylari bilan oshlab tayyorlangan yumshoq charm
14.	Obdasta	Qo`l yuviladigan suv; ro`zg`or buyumi; yuz-qo`l yuvish uchun ishlatiladigan uzun va ingichka jo`mrakli, qorni keng, bo`g`zi tor idish
15.	Gumashta	Vakolatli shaxs, xizmatkor
16.	Dastmoya	Ozgina pul, mablag`, mol
17.	Objuvoz	Suv+yog`och yoki tosh og`ir suv kuchi bilan yuradigan, sholi oqlaydigan qurilma ; sholi tegirmoni
18	Arayish	Bezak, tartib; bichilayotgan tikilayotgannarsaning chokidagi ortiqcha joyi, ko`sti.
19.	Dazgil	Yordam beruvchi ushlab turuvchi; tikilayotgan

		oyoq kiyimni tizzaga qistiri qo'yish uchun kosibchilikda ishlatiladigan aylana tasma
20.	Tolbargak	Tolning erta ko'klamda barg yozib, popuk chiqaradigan surx novdasi to'qilgan kiyim.
21.	Sandon	Temirchi, misgar, zargarlarning qizdirilgan metallga ishlov berish(bog'lash)da uning ostiga qo'yadigan asbobi; temir kunda.
III	Ruscha baynalminal so'zlar	Ma'nosi
1.	Sklad	Ombor
2.	Izvosh	Извочник-kirakash arava haydovchi ; rezina g'ildirakli, usti ochilib-yopiladigan yengil ot arava; foytun. Izvoshchi-izvosh haydovchi yoki uning egasi
3.	So'lkavoy - целковый	Bir so'mlik tanga
4.	Kataysa - катаци	Kezmoq, uchmoq, sayr qilmoq; arava, velosiped, chana va shu kabilarda uchish, kezish, sayr qilish
5.	Prikazchilik	Savdogarlarga yollangan va ularning savdo-sotiq ishlarini olib brogan xizmatchi; gumashta; Pomeshchikning yer-mulkini boshqaruvchi, xo'jaliuk ishlarini bajaruvchi xizmatchi
6.	Obrazovanniye	Ziyoli, ilmi
7.	A potom	Undan keyin
8.	Gulyat	Sayr
9.	Tolko	Faqat
10.	Zontik	Soyabon
11.	Kanop	Poyasidan tola olinadigan, bir yillik baland o'tsimon o'simlik; uning tolasi
12.	Okop	Kovlangan joy
13.	Zagranitsaga	Xorijga
14.	Bolshevik	Rossiya sotsial demokratik ishchilar partiyasi RSDRP
15.	Apteka	Dorixona
16.	Shkola	Maktab
17.	Pomeshchik	Xizmatlari uchun berilgan chek yer – kata yer egasi
18.	Zabastovka	Ish tashlash
19.	Maxorka	Tamaki
IV	Nemischa baynalminal so'zlar	Ma'nosi
1.	Politseymeyster	Politsiya boshlig'i
2.	Veksel	O'zgarish, almashtirish
3.	Kucher	Aravakash, izvosh haydovchi

V	Fransuzcha baynalminimal soʻzlar	Maʼnosi
1.	Injener	Tugʻma xislat, aql, ijodkorlik- texnikaning biror sohasi boʻyicha oliy maʼlumotga ega boʻlgan mutaxassis; muhandis
2.	Portsigar	Port-olib yurmoq, sigares-sigaret. Sigara yoki papiros solib yuriladigan quticha, papiros qutisi
3.	Barrikada	Toʻsiq, gʻov – koʻcha janglarida, shuningdek, koʻprik va togʻ yoʻllarida duch kelgan narsalar(xoda, tosh, daraxt, qum toʻldirilgan qop va boshqalar)dan foydalanib himoya, mudofaa maqsadida qurilgan toʻsiq gʻov
4.	Burjua	Shaharlik
VI	Lotincha baynalminimal soʻzlar	Maʼnosi
1.	Gubernator	Hukmdor, boshliq
2.	Pud	Ogʻirlik, oʻlchov
3.	Ofitsiant(ka)	Xizmatchi, xizmat qiluvchi; restoran, kafe va shu kabilarda xoʻrandalarga xizmat qiluvchi, ulardan buyurtma olib, ovqat keltirib beruvchi xodim(a).
4.	Kredit	Qarz, ishonmoq ; foyda qaytarish sharti bilan , vaqtincha foydalanish uchun pul yoki moddiy mablagʻlar berish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi; Shaxs yoki muassasaning oʻziga tegishli pullarni hisoblab qoʻyiladigan schyoti; qarz, nasiya, kredit; mablagʻga , chiqarilgan pul.
5.	Protsent	Foiz
VII	Yunoncha baynalminimal soʻzlar	Maʼnosi
1.	Xrom	Rang, boʻyoq , Xrom -xrom tuzlari bilan ishlov berib tayyorlangan yumshoq, yuzasi toʻrsimon naqshli, yaltiroq yupqa teri. Asarda shu maʼnoda qoʻllangan
2.	Grammofon	Gamma-yozuv, fon-tovush; maxsus plastinkaga yozib olingan kuy, nutq va shu kabilarni qayta eshittiradigan karnayli musiqa apparati

TADQIQOT NATIJASI VA MUHOKAMA

Bundan koʻrinib turadik, asar kesimida baynalminimal soʻzlarni oʻsha davr miqyosida ham tutgan oʻrni kata boʻlgan. Chunki, XX asr boshlarida ruslar taʼsiri va shu taʼsir ostida bizga boshqa davlatlar masalan nemischa, fransuzcha terminlarning kirib kelishi va bu terminlar faqat yuqori tabaqadagi vakillarga , bundan tashqari ziyoli qatlamgagina maʼlum boʻlganligini, ammo oddiy xalq esa bu terminlarni tushunmasligini yaqqol koʻrishimiz mumkin.

XULOSA

Hozirgi kunda ham yurtimiz jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Masalan, texnika, sport, iqtisod, savdo-sotiq kabi sohalarning rivoji natijasida hozirda tilimizda baynalminal so'zlarning tutgan o'rni kata. Lekin bir tomondan bu yaxshi bo'lsa, bir tomondan bu tilning faolligiga ham ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kunda bizni aholimizning orasida, nafaqat barcha aholi qatlamida boshqa tildagi so'zlardan foydalanish natijasida o'z tilini unutish darajasiga ham yetib kelganlarni guvohi bo'amiz ba'zida. Bu ba'zida tejamkorlik natijasida yuzaga kelsa, ba'zida o'zini ko'z-ko'z qilish natijasida yuzaga keladigan jarayon deb bilaman. Men ham mana shu holatni kuniga kamida 10-15 marta takrorlayman. Lekin bundan qutulish uchun o'zimizning adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilishimiz lozim. Xulosa sizdan

REFERENCES

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Oybek "Qutlug' qon" romani, <<Yangiyul Poligraph Service>> TOSHKENT-2019